

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI
YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI**

Himoyaga ruxsat etildi
Fakultet dekani, dotsent
_____ U.Meliboyev
« ____ » _____ 2016 y.

Kafedira mudiri, dotsent
_____ X.Parpiyev
« ____ » _____ 2016 y.

5320900 -"Yengil sanoat mahsulotlarini konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi"
(to'qimachilik sanoati) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchisi

Ismatova Hulkarxon Qutbiddin qizi

**“Sarja” ma`tolarini tayyorlash tehnalogiyasini ishlab chiqarishga
tadbiq etish imkoniyatlari” texnologiyasi mavzusida**

BITIRUV MALAKA ISHI

Bitiruvchi:

H. Ismatova

Rahbar:

B.Abdurahimov

Maslahatchilar:

B.Abdurahimov

kat. o'qit. A.Akramov

NAMANGAN 2016 YIL

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOOGIYA INSTITUTI

YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

«To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi» kafedrası

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri, dotsent

_____ I.R.Azizov

«___» _____ 2015 yil

«To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi» ta'lim yo'nalishi

4u-12 guruxi talabasi; Ismatova Hulkarxon Qutbiddin qizi

BITIRUV MALAKA ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

- 1.Bitiruv malaka ishining mavzusi: “Sarja” ma'tolarini tayyorlash tehnalogiyasini
ishlab chiqarishga tadbiq etish imkoniyatlari” texnologiyasi mavzusida
«___» oktyabr 2015 yilda kafedra majlisida ma'qullangan.

Bitiruv malaka ishini topshirish muddati; «___» iyun 2016 yil

- 2.Bitiruv malaka ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar

To'qimani to'la taxtlash ko'rsatkichlari

- 3.Hisoblash-tushuntirish yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar)

Kirish

Texnologik qism

Mehnat muxofazasi

Tashkiliy-iqtisodiy qism

Xulosa va tavsiyalar

- 4.CHizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi).

Texnologik jarayondagi jihozlar.

Texnologik jarayon jixozlari.

Texnologik jixozlarni joylashtirish.

O'ram xisobini jadvali.

Chiqindilar chiqish jadvali.

Korxonaning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

5.Bitiruv malaka ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi F.i.sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Sarja matosini turlari va ulardan foydalanish	B.Abdurahimov		
2	Texnologik qism	B.Abdurahimov		
3	Mehnat muxofazasi	A.Akramov		
4	Tashkiliy-iqtisodiy qism	B.Abdurahimov		
5	Xulosa va tavsiyalar	B.Abdurahimov		

topshiriqlar to'liq bajarildi _____

6. Bitiruv malaka ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	To'qimachilik matolarining assortimenti	dekabr 2015 y	
2	Texnologik qism	mart 2016 y.	
3	Mehnat muxofazasi	may 2016 y	
4	Tashkiliy-iqtisodiy qism	may 2016 y	
5	Xulosa va tavsiyalar	iyun 2016 y	

Bitiruv malaka ishi rahbari _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____

(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriq berilgan sana « ____ » _____ 2015 yil

Himoyaga ruxsat berildi « ____ » _____ 2016 yil

Kafedra mudiri _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Mundarija

	Kirish	
I	Ip gazlamalar ishlab chiqarishni takomillashtirish.	
1.1	Ip gazlamalarni tuzilishi va xossalari bo'yicha tasniflash.	
1.2	Ip gazlamalar ishlab chiqarishni texnika va texnologiyasini takomillashtirishi.	
1.3	Sarja matolarini turlari va ulardan foydalanish	
II	Ip gazlamalar tuzilishi va ishlab chiqarish texnologiyasini muvofiqlashtirish.	
2.1	Ip gazlamalar tuzilishini loyihalashni ilg'or yechimlari.	
III	To'qimani texnik va texnologik hisobi	
3.1	To'qima ta'rif.	
3.2	To'quv dastgohini turi va ishchi kengligini tanlash.	
3.3	To'qimani taxtlash xisobi.	
3.4	100 metr xom to'qima to'qish uchun iplar sarfi.	
3.5	To'quv korxonasini texnologik jarayon va uskunalarni tanlash va asoslash.	
3.6	Ip o'ramlarini xisoblash va asoslash.	
3.7	Chiqindi xisobi.	
3.8	Tanlangan mashina va dastgohlarnitezligi va dastgohlarni tezligi va ish unumdorligi xisobi	
3.9	O'tish jarayonlari bo'yicha yarim maxsulotlarning chiqish foizi xisobi.	
3.10	Tayyorlov bo'limi mashina dastgohlari.	
3.11	Xom ashyo ombori xisobi.	
IV	Mexnat muhofazasi.	
4.1	To'qimachilik korxonalarida elektr tokidan shikastlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish.	
V	Tashkiliy texnologik ko'rsatkichlari.	
5.1	Maxsulot ishlab chiqarish xajmi.	
5.2	Xom ashyo sarfini muvofiqligi.	
5.3	Tugallanmagan ishlab chiqarish.	
5.4	Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni taxlili.	
	Umumiy hulosalar va tavsiyalar.	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.	
	Ilova	

KIRISH

Ma'lumki, mustaqil O'zbekiston bugungi eksport mahsulotlari ichida paxta tolasi yetakchi o'rinlardan birini saqlab kelyapti.

Respublika to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda muhim ob'ektlardan hisoblanadi. Sanoatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari paxta tolasidan import o'rnini egallay oladigan, ekspertbop matolar ishlab chiqarishni ta'minlashga qaratiladi. Faqat shunday ishlab chiqarishgina tayyor mahsulotni olish va uni nafaqat ichki, balki tashqi bozorga chiqarishga xom ashyo eksportini kamaytirishga imkoniyatlar yarata oladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimovning O'zbekistonning mustakillikka erishgan birinchi kunlardayoq aytgan, «Biz qudratli to'qimachilik va yengil sanoatni yaratishimiz kerak. Barcha tarqqiy etgan sivilizatsiyalashgan davlatlar singari xom-ashyo – paxtani emas, tayyor mahsulotni sotishimiz zarur», deganlari Respublikamiz to'qimachilik sanoatining rivojlanish dasturi bo'lib qoldi.

Asosiy boyligimiz bo'lmish paxta tolasini qayta ishlash, olinadigan iplarni chet davlatga xom – ashyo sifatida sotishdan ko'ra, shu iplardan mamlakatimizda to'quv korxonalarida sifatli ip gazlamalari ishlab chiqarish, paxta tolasiga boshqa tabiiy tolalar aralashtirib olingan iplardan yangi assortimentdagi gazlamalar yaratish imkoniyatlarini izlab topish, mavjud imkoniyatlardan foydalanib, to'qima ishlab chiqarish xajmini kengaytirish, jaxon bozorida «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» yorlig'i ostida raqobatbardosh mahsulotlar bilan savdo qilishga erishish muammolarini hal etish hozirgi kunda mutaxassislarni oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va

ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012 — 2016 yillarda hisob-kitoblar bo'yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo'lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Mamlakatimizdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari va boshqa tarmoqlarning eksport yarmarkalari o'tkazishini kengaytirish, shuningdek, mahsulot sotishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, asosiy ishlab chiqaruvchilarimizni o'z mahsulotlari taqdimotini o'tkazish va yangi eksport shartnomalari tuzishi uchun nufuzli xalqaro yarmarkalarga jalb etish bo'yicha alohida Hukumat qarorini qabul qilish lozim.

Mustakillikni qo'lga kiritilgandan so'ng, ko'p tarmoqlarga, shuningdek yengil sanoatni to'qimachilik tarmog'i rivojlanishga xam aloxida ahamiyat berilmoqda. To'qimachilik sanoatini rivojlantirishni chet-el texnologiyasi va ish tajribalari bilan, ularni o'zlashtirish xamda o'z soxasida, ular asosida yaxshi texnologiyani rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Shu bilan birgalikda mahsulotning sifat darajasini xamda, standartlarning ilmiy-texnik darajasini oshirish, standartlar va texnik shartlarni muntazam yangilab borish, mahsulot sifati va yuqori texnik darajasini kafolatlash lozim.

To'qimachilik sohasidagi ilmiy tadqiqot va texnologik jarayonlarni loyihalash muassasalarining asosiy diqqati ana shu masalaga qaratilgan.

Bugungi kunda respublikamiz sanoati oldida turgan asosiy vazifalardan biri — ishlab chiqarishni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish,

ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga aholining moddiy va ma'naviy manfaatdorligini o'stirishdan iboratdir. Sanoat korxonalaridagi eski asbob-uskunalarini zamonaviylari bilan almashtirish ham ana shu vazifalarning muhimlaridan hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda rivojlangan mamlakatlardagi yetuk firma va kompaniyalar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar bunyod etilyapti. Germaniya, Italiya va boshqa sanoati taraqqiy topgan mamlakatlardagi firmalar kiritgan investitsiyalar asosida ish yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga jahon bozorida talab ortib borayotir. Ilmiy-texnikaning izchil rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligining ortishi, mahsulot sifatini yaxshilash iqtisodiy islohotlarning asosiy masalalaridan biri bo'lishi kerak. So'nggi yillarda to'qimachilik sanoatining mahsuloti hisoblangan ip gazlamaga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu talabni qondirish va mahsulot sifatini muntazam yaxshilab borish hamda uning turini ko'paytirish uchun yengil sanoatni jadal sur'atlarda rivojlantirish darkor.

Prezidentimiz 2014-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida kichik biznes shaklan kichik bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynayotganligini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Ishlab chiqarish taraqqiyoti sanoat tarmoqlarining izchil takomillashtirilishi bilan bog'liq. Bugun Namangan viloyatida ham korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga doir dasturlarning amalga oshirilishi yuqori sifatli raqobatdosh mahsulotlar turi va hajmini ko'paytirishda muhim omil bo'lmoqda.

1.1 Ip gazlamalar ishlab chiqarishni takomillashtirish

To'quv korxonasida to'qiladigan «Sarja» nomli ko'ylakli mato uchun karda tarash tizimida yigirilgan tanda ipi chiziqli zichligi 29 teks va arqoq iplarini chiziqli zichligi 42 teks bo'lgan 4 tip I so'rt 4 tip II so'rt paxta tolali iplardan to'qiladi.

29 teks ipning fizik mexanik xossalari quydagicha:

pishiqligi (RN)-10.5 sn/teks,

buramlar soni 516 inch,

variatsiya koeffitsenti uzuvchi kuch bo'yicha-10.0 %,

100 metrdagi nuqsonlar soni:

ingichka joylari-32ta

yo'g'on joylari -124 ta

nepslar soni -94 ta

42 teks ipning fizik mexanik xossalari quydagicha:

pishiqligi (RN)-10.7 sn/teks,

buramlar soni 538 inch,

variatsiya koeffitsenti uzuvchi kuch bo'yicha-9.3 %,

100 metrdagi nuqsonlar soni:

ingichka joylari-16ta

yo'g'on joylari -92 ta

nepslar soni -49 ta

Bu ip karda tarash yigiruv tizimida yigirilib quydagi o'timlarda amalga oshirildi

Yigirish tizimi uchun jihozlar kompleksini tanlash va asoslash

Paxta va kimyoviy tolalardan yigirishda qo'llaniladigan texnologik jihozlar va jarayonlarda tolalardan ip xosil qilish ketma-ketligiga yigirish tizimi deyiladi. Yigirish tizimini tanlashda tolaning turi va ipning ishlatilish maqsadi asos qilib olinadi.

Loyixalanayotgan 29(teks) va 42(teks) teks tanda va arqoq ipi uchun odii tarash yigirish tizimining pnevmomexanik usulini qabul qilamiz.

Texnologik uskunarlar zanjirini tanlash

Texnologik uskunarlar zanjirini fan-texnika taraqqiyoti, to`qimachilik mashinasozligi va texnologiyani rivojlanishi yo`nalishlarini, loyixalash institutlari hamda ilg`or korxonalarining tajribalariga asoslab tanlanadi.

2-JADVAL

№	Texnologik jarayondagi jixozlar	Loyixada qabul qildim
1	Avtomatik toy titgich	UNIfloc A 11
2	Dastlabki tituvchi tozalovchi mashina	UNIfloc 12
3	8 kamerali tola aralashtirgich	UNImix B 72
4	Tozalovchi mashinasi	UNIflex B 60
5	Tarash mashinasi	C 60
6	piltalash mashinasi 1 o`tim	SB-D 45
7	pilta qopshish mashinasi 2 o`tim	Unilap 3
8	Pnevmomehanik ip yigirish mashinasi	R-40

1.2 Ip gazlamalarni tuzilishi va xosalari bo'yicha tasniflash.

Materiallarni turlari assortiment so`zi bilan belgilanadi. Assortiment – inglizcha so`z bo`lib , «kompleks» yoki «to`plam» ma`nosini anglatadi.

Turli ishlanishdagi va vazifadagi materiallarning biror bir jinsli belgisiga ko`ra jamlanishga assortiment deyiladi.

Ishlab chiqarish usuliga ko`ra tikuvchilik materiallari to`kima (gazlamalar), trikotaj, notuqima va boshqa materiallarga bo`linadi. Ulardan gazlama eng ko`p qopllaniladi. Tikuv korxonalarda turli artikuldagi gazlamalar ishlatiladi.

Paxta tolali gazlamalar assortimenti

To'quvchilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan gazlama turlari ichida ip gazlamalari aloxida o'rin egalaydi. Ularning asosiy qismi klassik paxta tolasidan ishlab chiqarilgan turlari tashkil qiladi. Shuningdek, paxta tolasining viskoza, lavsan, nitron tolalari bilan aralashmasidan olinadigan gazlamalar xam keng tarqalgan. Xar yil ishlab chiqariladigan paxta tolalari gazlamalarning (ip gazlamalari) 10-12% yangi tuzilishdagi va parzolanishdagi gazlamalar xisobiga o'zgaradi.

Ip gazlamalari karda yigirish, qayta tarash yoki apparat usulida olingan turli tuzilishdagi (yakka, pishitilgan, shakildor, aralash tolali va xokozo) va chiziqli zichligi 5,88 dan 263,2 teksgacha bo'lgan iplardan ishlab chiqariladi.

Ip gazlamalari turli rangda, shaklda va o'lchamga gul bosilgan, sidirg'a rangli, oqartirilgan, chipor va oqatirilmagan xom xolda ishlab chiqariladi. Shu jumladan, maxsus pardoqlashlar xam qo'llaniladi.

Ip gazlamalarni turli maqsadlar uchun ishlatiladi: ichki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar ko'ylaklari, kundalik, maxsus va sport ko'ylaklari, astardan, pardalik va xokazolar sifatida. Ip gazlamalari turmushga zarur gazlamalar, chunki ular ijobiy gigiyenik xossalarga (gigroskopikligi, xavo o'tkazuvchanligi va x.k) ega, tashqi ko'rinishi chiroyli, mustaxkamligi, turli deformatsiyalar ta'siriga chidamligi yuqori yengil yuviladi, tez quriydi, yaxshi dazmollanadi. To'quvchilik buyumlarini tayyorlashda deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Bichish to'shamiga yaxshi taxlanadi, siljuvchanligi kam, bichish jarayonida surilmaydi va qiyshaymaydi, qirqilgan joydan iplari to'kilmaydi, tikish paytida iplari ignalari bilan shikaslanmaydi, choklar yonidagi iplari siljimaydi. Biroq ip gazlamalari ko'p g'ijimlanadi, ishqalanishga chidamligi kam yuvganda kirishmaydi. Mana shu xususiyatlarini yaxshilash uchun ip gazlamalari paxta va sintetik tolalar aralashmasidan ishlab chiqariladi.

Keng tarqalgan ip gazlamalarning tavsiflari. Amaliy preyskurantda turmushda va texnikada ishlatuvchi 1300 dan ortiq artikuldagi ip gazlamalar kiritilgan bo'lib

ular 17 guruxga ajratilgan. Bulardan eng keng ishlatiladiganlari 1-6 guruxlari tashkil qiladi.

Birinchi gurux – klassik ip gazlamalardan biri. Uni ishlab chiqarish jami bo'yicha ayollar va erkaklar ko'ylakbop gazlamalardan keyin 2-o'rinda turadi. CHit polotno o'rinishda tanda va arqoq yo'nalish chiziqli zichligi 15,4-20 teks bo'lgan karda yigirish usulida olingan iplardan ishlab chiqariladi. CHitlarning eni 62-100 sm, yuza zichligi 92-110 g/m² ga teng. CHit gazlamalar pardozlanishiga ko'ra gul bosilgan, sidirg'a rangli bo'ladi. Turli maqsadlarda qopllaniladi, jumladan ayollar va bolalar kiyimlari, erkaklar ko'yilagi, ichki kiyimlar va chayshoblar.

Ikkinchi grux- srup gazlamalari- chitga nisbatan dag'alroq, yuza zichligi 124-160 g/m², polotno o'rinishiga sidirg'a rangli va gul bosilgan xolda ishlab chiqaruvchi ip gazlama. Tanda va arqoq iplarning chiziqli zichligi 22-50 teks, eni 80-150 sm. gul bosilgan surplari bolalar kostyumlari, ayyollar va erkaklar ko'yilaklari uchun, sidirg'a ranglari esa maxsus ichki kiyimlarga, ustki kiyimlarning cho'ntaklari va qotirma qismlar sifatida ishlatiladi.

Uchinchi grux- chayshobbop gazlamalar. Bu guruxga kiruvchi gazlamalar uchga bo'linadi: surp, mitkal va maxsus gazlamalar guruxchalari.

CHoyshobbop sruplar oddiy sruplardan o'zining pardozi bilan farqlanib, oqartirilgan xolda ishlab chiqariladi va choyshoblar, tibbiyot xodimlari va oziq-ovqat savdosi bilan shug'ullanuvchilarning maxsus kiyimlari uchun ishlatiladi.

Mitkal guruxchasida kiruvchi chayshobbop gazlamalar xom xolda mitkal deb ataladi. Tuzilishi chitga o'xshash. Mitkal asosida mayin pardozlangan xolda (appret miqdori 1,5 %dan kam) muslin, appret miqdori 1,5-2,5% bo'lsa, mitkal, appret miqdori 2,5-3% dan oshsa madapolat nomli gazlamalar olinadi. Bu guruxchaga kiruvchi gazlamalar chayshobbop surpdan yupqa, yuza zichligi 45-110 g/m², eni 75-150sm gacha bo'ladi. Tanda va arqoq iplarning yo'g'onligi 11,8-20,0 teks. Bu gazlamalar polotno o'rinishida to'qiladi. Oqartirilgan yoki ochiq rangda sidirg'a qilib pardozlanadi. Muslin gazlamasidan tungi ko'yilak,

mitkal va madapolatdan chayshoblar tayyorlanadi. Bu gazlamalar uchun qayta tarash usulida yigirilgan iplar ishlatiladi. SHu sababli yupka va mayin.

Maxsus gruxga «grinsbon» va «tik-lastik» nomli Oqartirilgan gazlamalar kiradi. Grinsbon teskari sarja, tik-lastik atlas o`rilishda ishlab chikariladi. Bu gazlamalarning tanda va arqoq iplarga chiziqli zichligi 25-36 teksli yigirish usulida olingan iplar ishlatiladi. Bu gazlamalar mudofa xodimlarining ichki kiyimlari uchun ishlatiladi.

*To`rtinchi grux* –satin o`rilishdagi satin gazlamalari kiradi. Bu gurux gazlamalarning tuzilishida ishlatilgan iplarning turiga ko`ura ikkiga bo`linadi: karda yigirish usulida va qayta tarash usulida olingan iplardan ishlab chiqarilgan satinlar. Birinchi guruxchadagi satinlar chiziqli zichligi 15,4-18,5 teksda teng karda iplaridan ishlab chiqariladi. Yuza zichliklari 124-150 g/m². ikkinchi gruxchadagi satinlar tanda yo`nalishda 10-15,4 teks, arqon yo`nalishda 8,5-11,8 teks bo`lgan qayta tarash usulida olingan iplardan iborat. Yuza zichligi 114-130 g/m².

Satin gazlamalarida arqoq yo`nalishdagi zichligi va to`ldirishi tanda yo`nalishdagiga nisbatan ikki marotaba ko`p. SHuning uchun ularning sirti siliq, o`ng tomoni yaltiroq bo`ladi.

Xudi shunday, ip gazlamalarning atlas o`rilishdagi lastik deb ataladi. Satin va lastik gazlamalarning eni 60-100 sm. ular sidirg`a rangli, gul bosilgan va kamdan kam xollarda Oqartirilgan bo`lishi mumkin.

Satin va lastiklar ayyolar xalatlari va ko`yilaklari, ko`ra va yostiq jiltlari, sidirg`a ranglari esa astarlik va maxsus kiyimlar uchun ishlatiladi.

Beshinchi grux- ko`yilakbop gazlamalar kiradi. Ip gazlamalarning assortimentida bu gurux asosiy, eng kata va ko`p xildagi gazlamalardan iborat. U to`rtga bo`linadi. A)yozgi, b) mavsumiy, d)qishki, suniy ipak qopshib ishlab chiqariladi.

Ko'ylakbop gazlamalarni kata qismi karda yigirishda olingan yakka va pishitilgan iplardan ishlab chiqariladi. Eng sifatli gazlamalarda esa yo'nalishlarning birlarida yoki ikkalasida qayta tarash usulida olingan iplar, ba'zi gazlamalarda shakldor iplar xam ishlatiladi. Gazlamalarning tashqi ko'rinishi va xususiyatlarini yaxshilash uchun paxta ipiga kimyoviy tola yoki iplar qopshiladi, mayda guli o'rilishlar ko'llaniladi, pardozlashda maxsus ishlov beriladi.

Yozgi gazlamalar jumlasida yupqa, yengil, xavo o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan batist, markizet, mayi, volta, vual, kiseya gazlamalar kiradi.

Batist – juda mayin, yupqa, ishqorli ishlov berilgan, polotno o'rilishidagi gazlama. U Oqartirilgan, ochiq ranga sidirg'a bo'yalgan, tagi oq rangda mayda guli qilib pardozlangan xolda ishlab chiqariladi. Uning yuza zichligi $68-75 \text{ g/m}^2$, eni 80 sm, ishlab chiqarish uchun qopllanilgan ipning yo'g'onligi qayta tarash usulida olingan tanda iplari buyicha 10 teksli, arqoq iplari buyicha 8,5 tekslidir.

Markizet-qayta tarash usuli bilan olingan, yugonligi 5,9 teksli ikki kavatlab pishitilgan iplardan polotno o'rilishida ishlab chikariladi. Yuza zichligi 76 g/m^2 , eni 80 sm.

Mayya gazlamasini ishlab chikarish uchun tanda buyicha 15,4 teks, arqoq buyicha 11,8 teksli iplar ishlatiladi. Urilishi polotno. Yuza zichligi 78 g/m^2 , eni 80 sm.

Volta –eng yupka va mayin, ancha tinik, polotno o'rilishdagi, qayta tarash usulida olingan, yugonligi 8,33-10 teksda teng iplardan ishlab chikariladigan gazlama. Ishkor li ishlov berilib, gul bosigan xolda pardozlanadi.

Vual – qayta tarash usuli bilan olingan ingichka va maxsus eshilishlar soniga ega, yugonligi tanda va aokok iplari buyicha 11,8 teksli ipdan mayda guli o'rilishda ishlab chikariladi. Uning yuza zichligi 67 g/m^2 , eni 90 sm, pardozlanish jarayonida ishkoriy ishlov beriladi va gul bosiladi.

Mavsumiy ko'yilakbop gazlamalar karda va qayta tarash usuli bilan olinganiplardan ishlab chikariladi. Bu guruxchaga kiruvchi gazlamalar yozgilarga nisbatan biroz kalin, zich va ogirroq.

Mavsumiy ko'yilaklarga mos keladigan gazlama turlari shotlandka, sherstyanka, kashemir, poplin, tafta va boshkalardan iborat.

SHotlandka- yul-yul va katak gazlamalar bulib, polotno yoki sarja turida uriladi. Yuza zichligi 100-158 g/m², eni 105sm, ishlatiladigan iplarning chiziqli zichligi 18,5-20 teks.

SHerstyanka – karda usulida olingan chiziqli zichligi 25-29 teksli iplardan mayida guli o`rilishida ishlab chiqarilgan gazlama. Sirti noteks, jun gazlamalar sirtini eslatadi. Yuza zichligi 130g/m², eni 80sm. gul bosib pardozlanadi.

Kashemir –sidirga ragli yoki gul bosilgan, sarja o`rilishidagi mayin t pardozlangan gazlama. Yuza zichligi 130g/m². eni 100sm. Iplarining yugonligi 15.4-18.5 teks.

poplin - qayta tarash usulida yigirib pishitilgan iplar polotno o`rilishida tukilgan gazlama. Tanda buyicha zichligi arqoq liga nisbatan kuprok bulgani uchun gazlama sirtidan eniga ketgan yulg`yul chiziklar xosil bo`ladi, yuza zichligi 100-120g/m², eni 75 sm.

Tafta-polotno o`rilishidagi zich tuzilishli gazlama. Sirtidan chandiksimon tovlanuvchi nakishlar mavjud. Bunday nakshlar tanda iplariga qayta tarash usulida olingan ingichka (7.5 teks), arqoq buyicha yugon(20 teks) iplar ishlatilishi natijasida xosil bo`ladi. Yuza zichligi 114-140 g/m², eni 80-100sm. pardoziga ko`ura poplin va tafta gazlamalari Oqartirilgan, sidirgaganli va gul bosilgan bo`ladi. Bahzi taftalarning tarkibida 67%gacha lavsan tolasi mumkin. Bu gazlamalar, asosan, erkaklar ko'yilaklari uchun ishlatiladi.

Aynan shu guruxchaga xar xil turdagi erkaklar kuyilagi bop gazlamalar kiradi. Ular odatda polotno yoki o`rilishda okartililgan, sidirga yoki turli rangdagi iplardan tukib ishlab chikariladi. Bunday gazlamalarning tolali tarkibida

33% gacha lavsan tolasi mavjud . Bu gazlamalarning gijimlamaslik va kiyim shaklini saklash xossalari yukori.

Ko`yilakbop gazlamalarning qishki turlaridan issikni yaxshi saklash xususiyati tahlal kilinadi. SHuning uchun , bu guruxchadagi gazlamalar apparat yigirish usulida olingan iplardan sirti taralgan tukli qilib ishlabchikariladi. Bularga flamen, bumazeya , bayaka kabi paxmok tuzilishdagi gazlamalar kiradi.

Flamen- sidirga rangli, gul bosilgan yoki Oqartirilgan pardozdagi , polotno yoki sarja o`rilishdagi gazlama bo`ladi, yuza zichligi 180-257g/m², eni 58-95sm. flamen ikki tomonida taralgan tuklari mavjud.

Bumazeya gazlamasi, asosan , sarja o`rilishida to`qiladi. Taralgan tuk fakat bir tomonda bo`ladi. Uning tanda iplarining yugonligi 18,5 teks, arqoq iplarning yugonligi esa 50 teks. Yuza zichligi 160-180g/m².

Bayka – flamenga uxshash ikala tomonidan taralgan tukli tuzilishga ega. Lekin uning urilish murakkab, 1,5 kavatli . SHuning uchun u kalin va ogir, yuza zichligi 180-360g/m²ga teng. pardozlanishi sidirga rangli yoki xom xolda bo`ladi.

Flanel bilan bumazeya gazlamalari chakaloklarning kishgi kiyimlariga , ayyollar va erkaklar ko`yilaklari, xalatlari uchun, bayka esa askarlarning ichki kiyimlari va shifoxonada kiyiladigan xalatlari uchun ishlatiladi.

Suniy ipak kushib ishlab chikariladigan ip gazlamalarning tandasida paxta tolasidan olingan ip, arkogiga esa viskoza yoki atsetat yaltirok kompleks iplari ishlatiladi. Bu gazlamalar yirik vam ayda guli o`rilishda ishlab chikariladi. SHu sababli , ularning sirtida ajoyb tovlanuvchi naksh xosil bo`ladi. pardozlanishi –sidirga rangli, Oqartirilgan yoki gul bosilgan. Eni 62-95sm. Yuza zichligi 95-110g/m². Bu guruxchaga «ko`yilakbop» gazlamalar kiradi.

Oltinchi guruxda kiyimbop gazlamalar mujassam. Bular jumlasidan kostum , shim, palto, kurtka, plash va maxsus kiyimlarni tikish uchun ishlatiladigan zich tukilgan , ishkalanishga chidamli va mustaxkam gazlamalar kiradi. Ular ichida sidirga va xar xil rangli iplardan tukilgan gazlamalar kup

mikdori tashkil etadi. Kiyimbop gazlamalar, asosan, karda usulida yigirilgan yakka (25-70 teks) yoki pishitilgan (15,4 teks x 2-25 teks x2) iplardan ishlab chikariladi. kiyingi paytlarda kimyoviy tolalar xam kiyimbop gazlamalarning tolali tarkibiga kiritilmokda. pardozlanish jaraenida ishkorli, gijimlanmaydigan va kirishmaydigan maxsus ishlovlar beriladi.

Kiyimbop gurux turta guruxchaga bulinadi a)sidirga rangli, b)maxsus, d)kishki, ye) xar xil rangli iplardan tukilgan va chipor gazlamalar.

Sidirga rangli gruxcha- klassik gazlamalardan iborat: dyagonal , moleskin, reps.

Dyagonal- sarja o`rilishidagi maxsus ish kiyimlari uchun ishlatiladigan gazlama. Tandasida 42 teksli , arkogida 29-72 teksli iplardan foydalaniladi.

Yuza zichligi 180-380g/m², eni 67-100 sm . Ayrim artikullarida 12-15% kapron tolasi kushiladi.

Moleskin –sidirga rangi yoki kam mikdorda Oqartirilgan , ishkorli ishlov berilgan gazlama. Kuchaytirilgan satin o`rilishida. SHu sababli, tolali tarkibida 15% kapron tolasi mavjudligi va tanda yunalishida pishitilgan iplar ishlatilishi tufayli gazlamalarning ishkalanishiga chidamligini juda yukori. Eni 65-100 sm, yuza zichligi 220-330g/m². Ishlatilishi diagonalnikdek.

Reps gazlamasi arkogiga yugon (29teks x 2) , tandasiga esa ingichka (18,5 teks) iplar ishlatilgani uchun sirtida biki kundalang yullar bo`ladi. Urilishi polotno. Yuza zichligi 180-220g/m².

plashlar uchun ishlatiladigan gazlamalar sarja yoki polotno o`rilishda to`qiladi. Teskari tomonidan suv utishiga karshilik kursatuvchi plyonkasi bo`ladi.

Bu guruxchaga bir kancha « kostyumbop» gazlamalar xam kiradi.

Kiyimbop gazlamalar guruxining maxsus guruxchasida kiruvchi gazlamalar xam sidirga rangida ishlab chikariladi. Yuza zichligi 220-320g/m²,eni 65-105sm.

Ular maxsus kiyilarni tikishda kullaniladi. Gazlamalar maxsus diagopal, kitellar uchun sport kiyimlari uchun , kiyimbop va xokoza gazlamalar deb ataladi.

Uchinchi maxsus guxchaga , asosan, «triko» va «jins» gazlamalari kiradi.

Triko gazlamasining avzali shundaki , u yul-yul yoki katak kurinishda bo`ladi. Bu turli rangli iplarni ishlatish yoki aralash urilishlarda tukilishi sababli xosil kilinadi. Triko ip gazlamalari jun triko gazlamasini eslatadi. Ular uncha kimmat bulmagan erkaklar kostyum va shimlarini tikishga ishlatiladi.

Jins gazlamalarni sarja tandasida rangli iplardan,arkogida esa xom iplardan to`qiladi. Bu gazlamalarning gijimlapmasligini va kiyining shaklini saklashxususiyatini tahminlash uchun unga yuvilib ketmaydigan appret bilan ishlov beriladi.

Ayrim artikullarning tolali tarkibida lavsan tolasi kushiladi. Jins gazlamasi yoshlar sport kiyimlari , kurtkalar, shimlar tikishda keng kulaniladi.

Kishki guruxcha movut,zamsha , velveton gazlamalaridan iborat.

Bu gazlamalarni klassik gazlamalar jumlasiga kiritish mumkin. Ularning sirtida zich joylashgan taralgan tuki bo`ladi. Urilishi- kuchaytirilgan satin.

Movut tuk ranglarga buyalgan xolda pardoizlanadi.

Velvetonning yuza zichligi $370-400\text{g/m}^2$. Tandasida pishirilgan ip (29,4 teks x2 -15,4 teks x2) arkogiga esa yakka (50-58,8 teks) iplar ishlatiladi.

Zamsha gazlamasi movut va velvetondan tukining turi bilan farkanadi.

Uning tuki kiska va katik presslangan bo`ladi. Yuza zichligi $405-415\text{ g/m}^2$.

Bu gazlamalar bolalar sport kiyimlarini tikish uchun ishlatiladi.

Yettinchi grux – astarbop gazlamalar. Kiyimlarning astari, ichki kismiga kat va chintaklarida xalta sifatida ishlatiladi. Bu gazlamalarga kattik appret ishlov beriladi. SHu sababli ularning sirti tekis va silik, ishkalanishga chidamli bo`ladi. Bu gruxga – kolenkor sidirga rangli Oqartirilgan gazlama kiradi. Appret mikdori kata 8-10%. U kat yoki buyilamalar sifatida ishlatiladi.

CHuntak xaltalari uchun ishlatuvchi gazlamalar mustaxkam, ishkalanishga chidamli, sidirga rangli surp, grinsbon, tik-lastik kaildan tayyorlanadi. Ular xam katik appretlanadi yenglar astariga ishlatuvchi sarja xam shu gurux tarkibida. Bu gazlamalar Oqartirilgan gazlama sirtiga yul-yul shakilli gul bosib pardoizlanadi, sarji o`rilishida ishlab chikariladi.

Tukli gazlamalar kuiylak, kastyum , kurtka shimplarni tikish uchun keng kullaniladi. Bunday gazlamalar turiga duxoba va chi duxobalar kiradi.

Bu gazlamalarning urilishi –arqoq tukli, sidirga rangli yoki gul bosilgan pardoizlanishda ishlab chikariladi. Tukli gazlamalarning tandasida karta usulida yoki qayta tarash usulida olingan pishitilgan ip , arqoq gida yaka karda ipi ishlatiladi.

Duxoba sirti yaxlit kukli . Yuza zichligi 270-290g/m² , eni 120-140 sm vetning sirtida esa kengligi xar xil yullar tarzidagi nakishdor tuk bo`ladi. Yuli kengrok gazlama (velmet-kord), ingichka yullisi « vilvet-rubchik» deb ataladi. Yuza zichliklari 220-240 g/s², eni 80-140 sm.

Xozirda ishlab chikarilayotgan ayrim yangi artekuldagil vilvetlarning tola tarkibiga 30% gacha lavsan kushiladi.

1.3 Sarja matolarini turlari va ulardan foydalanish.

Oddiy o`rilishlar guruhiga polotno, sarja, atlas-satin o`rilishlar kiradi. Barcha silliq o`rilishlarga hos xususiyatlar: xar qaysi tanda ipi rapportda arqoq ipi bilan faqat bir marta o`rilishadi, xar doim tanda bo`yicha rapportga teng bo`ladi.

Sarja o`rilishli gazlamalarning o`ziga xos tomoni shundaki, ularda gazlama diagonal bo`ylab ketgan yo`llar bo`ladi. Bu dioganal yo`llari matolarning o`ngida odatda chapdan o`ng tomoniga pastdan yuqoriga (o`ng sarja), ba`zan esa o`ngdan chapga qarab ketadi (chap sarja). O`ng sarja o`rilishi ko`proq ishlatiladi.

Sarja rapportidagi iplar soniga hamda tanda va arqoqning zichligiga qarab, sarja o`rilishdagi yo`llarning qiyalik burchagi xar hil bo`lishi mumkin. Agar tanda va arqoq iplarining zichligi va yo`g`onligi bir xil bo`lsa, sarja yo`llarining qiyalik burchagi 450 ni tashkil qiladi.

Sarja o'rilishining tuzilishi quyidagilarga bog'liq:

1. Rapportdagi iplarning soni uchtdan kam bo'lmaydi: $R_{\min} = 3$.
2. Har bir tanda yoki arqoq qoplanish har mahal bitta ipga siljiydi: $Z=1$.

Ana shu siljish tufayli gazlama yuzasida diagonallar paydo bo'ladi. Sarja o'rilishlari kasr bilan belgilanadi. Uning sirtida rapportning har qaysi qatoridagi tanda qoplanishlarning soni, maxrajda-arqoq qoplanishlarning soni ko'rsatiladi. Suratda xar qaysi rapport qatoridagi tanda bilan yopilishlar T soni bilan, maxrajda arqoq bilan yopilishlar A soni bilan ko'rsatiladi.

O'rilishning rapportdagi iplar miqdori shu sonlarning yig'indisiga teng. Agar matoning o'ngida tanda iplari ko'p bo'lsa, bu o'rilish tandali sarja o'rilish deb ataladi.

Agar matoning o'ngida arqoq iplari ko'p bo'lsa, bu o'rilish arqoqli sarja o'rilish deb ataladi. Tandali sarjalar $2/1, 3/1, 4/1$ va arqoqli sarjalar, $1/2, 1/3, 1/4$ va hokazo deb belgilanadi. Odatda, ipak tandali va ip arqoqli yarim shoyi gazlamalar tandali sarja o'rilishida to'qiladi. Tandasi paxta ip, arqog'ini jun ip tashkil qilgan yarim jun matolar arqoqli sarja o'rilishida to'qiladi.

Sarja o'rilishi bilan to'qilgan ip matolardan- jinsi, bumazeya, sarja, kashemir;

Jun matolaridan-triko, kashemir va yana bir qator ko'ylaklik va kostumlik matolarni;

Paxta matolaridan-astarbop sarja, ko'ylaklik matolarni eslab o'tsa bo'ladi.

Sarja o'rilishli gazlamalar elastik, mayin, lekin polotno o'rilishli gazlamalarga nisbatan pishiqligi pastroq bo'ladi, chunki sarja o'rilishdagi yopilishlar polotno o'rilishli gazlamalarga qaraganda cho'ziqroq. Sarja o'rilishda siyrakroq to'qilgan gazlamalar diogonal bo'yicha cho'ziluvchan bo'ladi.

II Ip gazlamalar tuzilishi va ishlab chiqarish texnologiyasini muvofiglashtrish

Ip gazlamalar maishiy va texnik xillarga bo'linadi. Maishiy ip gazlamalar assortimentining katta qismini tshkil etadi.

Maishiy ip gazlamalar rangi, tuzilishi jixatidan turli tuman bo'lib, ko'ylaklar, yubkalar, bluzkalar, shimlar, kostyumlar, sarafanlar, palto, yarim palto, sport kiyimlari, maxsus sport kiyimlari, maxsus kiyimlar, gimnastyorkalar, telogreykalar va boshqa buyumlar tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Ip gazlamalar to'qishda to'quvchilik o'rilishlarining barcha klasslari qo'llaniladi.

Bo'yalishi jixatidan ip gazlamalar xom, oqartirilgan, sidirg'a, melanj, mulinirlangan, guldor va gul bosilgan xillarga bo'linadi. Yuvilib ketmaydigan appretli, g'ijimlanmaydigan va kirishmaydigan qilib pardoqlangan ip gazlamalar ishlab chiqarish yildan yilga ko'paymoqda.

Savdo preyskuranti bo'yicha ip gazlamalar 17 guruhga: chitlar, bo'zlar, ich kiyimlik gazlamalar, satinlar, ko'ylaklik, kiyimlik va xokazo gazlamalarga bo'linadi.

Masalan, ich kiyimlik gazlamalarning bo'z, mitkal va mavsumbop va ximiyaviy kompleks iplar qo'shib to'qilgan gazlamalarga bo'linadi.

Ip gazlamalarning artikullari gazlamalarning preyskurant bo'yicha tartib nomeridan iborat. Tartib nomeri xar qaysi gruppaga uchun intervallar bilan belgilanadi. Ip gazlamalarning savdo preyskurantiga turli gazlamalarning 1300 dan ortiq artikuli kiritilgan.

III. To'qimani texnik va texnologik xisobi.

3.1 To'qima tarifi

Artikul 6915 "Sarja " to'qimasi ko'ylakbob to'qimalar sinifiga mansub bo'lib erkaklar uchun ko'ylakli mato to'qish uchun qo'laniladi. To'qima paxta tolali iplardan Karda tarash yigirish tizimida yigirilgan iplardan to'qiladi. to'qimadagi tanda va arqoq iplarini chiziqli zichligi $T_T = 29$ $T_a = 42$ teks. To'qimani tanda bo'yicha zichligi $R_T = 278$ ip/10 sm, arqoq bo'yicha zichligi $R_a = 171$ ip/10sm. to'qimani yuza zichligi $p_{\text{tuk}} = 166 \text{ gr/m}^2$ to'qima Sarja o'rilishida to'qiladi Sarja 2/2 o'rilishi bosh o'rilishli sarjaning xosilasiga kirib , to'qima yuzasida ikkita tanda qoplanishiga va ikkita arqoq qoplanishiga ega . SHu sababli teng qoplanishli sarja deyiladi .Bu o'rilishni xosil qilish uchun 4 ta shoda kerak bo'lib qator o'tkazish turidan foydalaniladi .To'qima pnevmomehanik to'quv dasgoxida ishlab chiqariladi.

To'qimani nomlanishi	Artikulni Nomi	To'qimani eni	Ipni chiziqliy zichligi			Iplar soni		10 sm. iplar soni	
			T _t	T _a	T _{qir.}	Xammasi	Qirg'og'i	R _t	R _a
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Sarja	6915	90	29(teks)	42(teks)	29(teks)	2514	48	278	171

To'qimani to'la taxtlash ko'rsatkichlari.

1-Jadval

Iplarni qisqarishi		Berdo			O'rinish	Nomlanishi	To'qimani og'irligi	Chiqindi miqdori		pyrajani ishlatilinishi 100pog.m.uchun	
								Tanda	Arqoq	Tanda	arqoq
A _t	A _a	Nomer	fon	Qirg'oq	16	17	18	19	20	21	22
9	5,1	88	3	4	Sarja2/2	STB	166	0.74	0.84	7.893	6.811

3.2 To'quv dastgoxini turi va ishchi kengligini tanlash.

Berilgan to'qima assortimentini to'qib chiqarish uchun to'quv dastgoxini to'g'ri tanlash muxim ro'l o'ynaydi. Ishlab chiqariladigan to'qima sifati, mahsulot miqdori, sarf- harajatlarni kamayishi, qo'l mehnatini yengillashtirish kabi ko'rsatkichlar, to'qima dastgoxini to'g'ri tanlanishiga bog'lik.

To'quv dastgoxini tanlashda quyidagilar asosiy man'ba hisoblanadi:

1. Berilgan to'qima assortimentini to'qish uchun tola yoki ipni nisbiy qalinligi to'g'ri kelishi.
2. Berilgan to'qima assortimenti to'qilgandan so'ng olinadigan xom to'qima kengligini, standart tayyor to'qima kengligiga to'g'ri kelishi.
3. To'qima uchun o'rilish turini olish mumkinligi.
4. To'quv dastgoxida berilgan to'qima assortimentini to'qish imkoniyatini aniqlash (tanda va arqoq iplarini to'qimadagi zichligiga, o'rilish turiga va boshqalarga bog'liq). Bu imkoniyatlar to'quv dastgoxi harakteristikasida ko'rsatiladi.

To'quv dastoxini ishchi kengligini tanlashda uni ishlatish imkoniyatidan to'liq foydalanishga harakat qilish zarur.

ATPR va STB to'quv dastgoxlarida arqoqni xomuzaga tashlash usuli to'qimani har qanday kenglikda to'qish mumkin emasligini ko'rsatadi. ATPR to'quv dastgoxlari uchun tig' buyicha tanda kengligi quyidagi jadvalda ko'rsatiladi.

To'quv dastgoxini turini tanlash quyidagi ko'rsatkichlarni miqdorini hisoblash orqali amalga oshiriladi.

1. To'qimani bog'lanish koefitsenti S va uni tolali materiallar bilan to'ldirish koefitsent K_{tk} lari aniqlanadi, dastgox turini tanlanadi.

2. Tig' bo'yicha tandani taxtlash kengligiga qarab dastgox ishchi kengligi tanlanadi, xom to'qima kengligiga javob berishi kerak

(«Tayyor to'qimalar kengligi» GOSTiga ya'ni davlat standarti talablariga javob berish kerak).

To'qimani bog'lanish koefitsenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$T_{or} = \frac{2 \cdot T_t + T_a}{T_T + T_A} = \frac{2 \cdot 29 \cdot 42}{29 + 42} = 34,3$$

$$c = \frac{P_t \cdot P_t \cdot T_{o'r}}{F \cdot 1000} = \frac{27,8 \cdot 17,1 \cdot 34,3}{2 \cdot 1000} = 8,15$$

R_t – to'qimani tanda iplari buyicha zichligi – ip/sm da.

R_a – to'qimani arqoq iplari buyicha zichligi – ip/sm da.

$T_{o'r}$ – tanda va arqoq iplarini o'rtacha chiziqli zichligi – teksda.

G – o'rilishi koefitsenti.

R_t, R_a – tanda va arqoq iplari buyicha urilishi rapportlari.

T_t, T_a – da iplarini arqoq ipini rapport chegarasida kesib utish soni.

1. sarja o'rilish 2/2

$T_t=2$

			0
		0	
	0		
0			

		x	x
	x	x	
x	x		
x			x

//			//
		//	//
	//	//	
//	//		

$R_t=4$ - To'qima o'rilishida tanda bo'yicha rapo'rt

$R_a=4$ - To'qima o'rilishida arqoq bo'yicha rapo't

$t_t=8$ - o'rilishda tanda qoplanishlar soni

$t_a=8$ - o'rilishda arqoq qoplanishlar soni

$$F = \frac{2 \cdot R_t \cdot R_a}{t_t + t_a} = \frac{2 \cdot 4 \cdot 4}{8 + 8} = 2$$

To'qimani tolali materiallar bilan to'ldirish koefitsenti.

A). To'qimani tanda iplari bilan tuldirish koefitsenti.

$$K_{TT} = \frac{P_T (R_T \cdot d_T + r_A \cdot d_A)}{R_T \times 10} = \frac{27,8(4 \cdot 0,2098 + 4 \cdot 0,2526)}{4 \cdot 10} = 0,58$$

B) To'qimani arqoq iplari bilan tuldirish koefitsenti.

$$K_{TA} = \frac{P_A \cdot (R_A \cdot d_A + r_T \cdot d_T)}{R_A \cdot 10} = \frac{17,1 \cdot (4 \cdot 0,252 + 4 \cdot 0,209)}{4 \cdot 10} = 0,78$$

$p_T p_A$ – to'qimani tanda va arqoq bo'yicha zichligi, ip/sm

$R_T R_A$ – to'qimani tanda va arqoq buyicha rapporti, ip/sm

$d_T d_A$ – tanda va arqoq ipi diametri, mm.

R_T – o'rilish rapportida tanda ipini to'qimani bir tomonidan ikkinchi tomoniga o'tish soni (1 ta ip oralig'ida)

R_A – o'rilish rapportida arqoq ipini to'qimani bir tomonidan ikkinchi tomonga o'tish soni (1 ta ip oraligida)

Ip diametri ushbu formula bilan aniqlandi.

$$d_T = 0.0316 \cdot C \sqrt{T} = 0.0316 \cdot 1,23 \sqrt{29} = 0,2098$$

$$d_A = 0.0316 \cdot C \sqrt{T} = 0.0316 \cdot 1,23 \sqrt{42} = 0,2526$$

S– ip turiga bog'lik bo'lgan doimiy koefficient.

Masalan: paxta tolalari uchun $1,23 \div 1,24$

T – ipni chiziqli zichligi, teks.

B) To'qimani tolali materiallar bilan tuldirish koeffitsenti.

$$K_{to'q} = K_{TT} \cdot K_{TA} = 0,58 \cdot 0,78 = 0,4524$$

K_{TT} -o'qimani tanda iplari bilan tuldirish koeffitsenti.

K_{TA} -to'qimani arqoq iplari bilan to'ldirish koeffitsenti

SHu jumladan jun tolalari uchun.

To'quv dastgoxida to'qilgan xom to'qima kengligi shunday bo'lishi kerakki, pardozlash jarayonidan so'ng olinadigan davlat standarti talablariga javob beradigan «Tayyor to'qima kengligi» ga mos kelishi shart.

«Tayyor to'qimalar kengligi» davlat standartlari quyidagilardir:

1. paxta tolasidan ishlab chiqiladigan to'qimalar uchun GOST–9205–76
2. SHoyi va yarim shoyi to'qimalar uchun GOST – 9202 – 82
3. Jun va yarim junli to'qimalar uchun GOST – 9204 – 76

Xom to`qima kengligi tanlashda dastgox ishchi kengligidan to`liq foydalanish kerak.

Tig buyicha kengligi GOST=80,85,90,95,100,105,110,...130,140,150

1. To`quv dastgoxini ishchi kengligini tanlash

A) Xom to`qimani pardozlash jarayonida qisqarishi (eni bo`yicha)

$$Uy = \frac{B_x - B_T}{B_x} \cdot 100 = \frac{95 - 90}{95} \cdot 100 = 5,26[\%]$$

B_x – xom to`qima kengligi, sm (fabrika buyicha yoqi qopllanma bo`yicha qabul qilinadi).

B_t – tayyor to`qima kengligi, sm (fabrika buyicha yoqi qopllanma bo`yicha qabul qilinadi).

U_u – ni fabrika yoqi qopllanma bo`yicha tanlab olish xam mumkin.

2. GOST bo`yicha tayyor to`qima kengligini tanlash, $B_T = 130$

3. pardozlash jarayonidan so`ng xosil bo`ladigan tayyor to`qima kengligiga mos keladigan xom to`qima kengligini hisoblash.

$$B_x = \frac{B_T}{(1 - 0.01 \cdot Uy)} = \frac{220}{(1 - 0.01 \cdot 5,2)} = 232,06[cm]$$

4. Tandani tig` bo`yicha kengligini hisoblash.

$$B_{B.tig} = \frac{B_x}{(1 - 0.01 \cdot a_A)} = \frac{232,06}{(1 - 0.01 \cdot 5,1)} = 244,53[cm]$$

a_A – to`quv dastgoxida xosil bo`lgan to`qimadagi arqoq ipini kirishishi. (qo`llanmadan yoki quyidagi formuladan hisoblash mumkin).

$$B_{tig'} < B_{ish}$$

$$244,53 < 250$$

3.3 To`qimani taxtlash hisobi.

1. To`qimani o`rtasi va qirg`og`i kengligini hisoblang.

A) To`qima o`rtasi kengligi

$$B_{o`r} = B_x - B_{qir} = 232.06 - 3 = 229.06 [cm]$$

B) To`qima qirg`og`i kengligi

$$B_{qir} = \frac{n_{qir}}{P_{qir}} = \frac{48}{27,8} = 3 [cm]$$

n_{qir} – qirg`oq iplari soni

R_{qir} – qirg`oq iplari zichligi [ip / cm]

Mokili to`quv dastgoxlari uchun qirg`oq zichligi quyidagicha:

Agar $T_{qir} > T_{o`r}$  bo`lsa $R_{qir} = R_{o`r}$  teng bo`ladi

$$T_{qir} = T_{o`r} \quad R_{qir} = 2 R_{o`r}$$

Mokisiz to`quv dastgoxlarida to`qima qirg`og`i zichligi to`qima o`rtasi zichligiga teng, ya`ni  $R_{qir} = R_{o`r}$ yoki to`qima qirg`og`i zichligi o`rtasi zichligidan kam bo`ladi, bunga sabab to`qimadagi arqoq zichligi to`qima qirg`og`ida ikki barobar ko`p bo`ladi. (o`rtasiga nisbatan).

STB dastgoxi uchun : $B_{qir} = 3,0$ ga teng

ATPR dastgoxi uchun : $B_{qir} = 1,4$ dan $2,0 [cm]$ ga teng.

2. Tanda iplari sonini xisobi.

A) To`qimani o`rta iplari soni

$$n_{o`r} = B_{o`r} \times R_{o`r} = 229.06 \cdot 27.8 = 6367.868 = 6368 [ip]$$

B) To`qima iplari qirgoq bo`yicha

$$n_{qir} = B_{qir} \times R_{qir} = 3 \cdot 27.8 = 83.4 = 84 [ip]$$

V) Umumiy tanda iplari soni

$$n_t = n_{o`r} + n_{qir} = 6368 + 84 = 6452 [ip]$$

3. Tig` hisobi

A) Tig` nomerini aniqlash.

$$N_b = \frac{P_T \cdot (1 - 0,01 \cdot a_l)}{Z_{o`r}} = \frac{278 \cdot (1 - 0,01 \cdot 5,1)}{3} = 87,9 \approx 88 [tish / cm]$$

$Z_{o'r}$ – to'qima urtasi iplarini tigdan o'tish soni

A_l – to'qimada arqoq ipi kirishishi %

N_b – GOST bo'yicha eng yaqini tanlab olinsin

b) Tig' tishlari soni

$$X = \frac{n_{o'r}}{Z_{o'r}} + \frac{n_{qir}}{Z_{qir}} = \frac{6367}{3} + \frac{83}{4} = 2143[dona]$$

Z_{kir} – tig'dan kirg'oq iplarini o'tkazish soni

X_{zax} – zoxiradagi tig' tishlari

Mokili dastgoxlar uchun $X_{zax} = 4 - 12$, mokisiz to'quv dastgoxlarida zaxira tishlar olinmaydi.

4. SHoda hisobi.

SHodalar soni to'qima o'rilishiga, tanda iplari zichligiga va ularni o'tkazish usuliga qarab qabul qilinadi.

Qatorli va sochma o'tkazish usullarida shoda hisobi quyidagicha:

A). O'rta iplari uchun shoda gulalari soni.

$$\Gamma_{o'r} = \frac{n_{o'r}}{n_{shodao'r}} = \frac{6368}{4} = 1592[gula]$$

B). Qirg'oq iplari uchun shoda gulalari soni.

$$\Gamma_{qir} = \frac{n_{o'r}}{n_{shodao'r}} = \frac{84}{2} = 42[gula]$$

V) Xamma shodadagi gulalar soni

$$\Gamma_{qo'sh} = \Gamma_{o'r} \cdot \Pi_{shodao'r} + \Gamma_{qir} \cdot \Pi_{shodaqir} + \Gamma_{qo'shmcha} = 1592 \cdot 4 + 42 \cdot 2 = 6452[gula]$$

G_{qopsh} – zoxira gulalar soni (har bir shoda uchun 2 tadan 4 tagacha)

G). shoda kengligi

$$B_{shoda} = B_{t.b} + (1/2cM) = 244,53 + 1,74 = 246(cM)$$

V_{shoda} – butun son kurinishida olinsin

$$P_r = \frac{I_{or}}{B_{shoda}} = \frac{1592}{246} = 6,47 \approx 7[gula / cM]$$

5. Tanda kuzatgich hisobi.

A) Lamel soni tanda iplari soniga teng.

$$n_L = n_T [лoмeль]$$

B) Lamel zichligi

$$P_n = \frac{n_{л}}{M_{пейка} \cdot (B_{шода} + 1)} = \frac{6452}{3 \cdot (246 + 1)} = 8,7 \approx 9[10.M / cM]$$

$T_{reyk} = 2-6$ gacha – lamel reykalari soni

Lamel zichligi ruxsat etilgan zichlikdan kichik yoki unga teng bo'lishi shart,
ya'ni;

$$R_l < [P_l] 9 \leq (9 - 11)$$

3.4 100 metr xom to`qima to`qish uchun sarflanadigan ip og`irligi.

a) 100 metr xom to`qima to`qish uchun to`qimani o`rtasiga sarflanadigan tanda
iplari og`irligi.

$$M_{or} = \frac{I_{or} \cdot T_{or} \cdot (1 - 0,01 \cdot B\%)}{10^6 \cdot (1 - 0,01 \cdot a_T)} \cdot 100 = \frac{6368 \cdot 29 \cdot (1 - 0,01 \cdot 0,4)}{10^6 \cdot (1 - 0,01 \cdot 9)} \cdot 100 = 20,2[kg]$$

b) 100 metr xom to`qima to`qish uchun to`qimani qirg`og`iga sarflanadigan
tandan iplari og`irligi.

$$M_{qir} = \frac{I_{qir} \cdot T_{qir} \cdot (1 - 0,01 \cdot B\%)}{10^6 \cdot (1 - 0,01 \cdot a_T)} \cdot 100 = \frac{84 \cdot 29 \cdot (1 - 0,01 \cdot 0,4)}{10^6 \cdot (1 - 0,01 \cdot 9)} \cdot 100 = 0,26[kg]$$

Yuqoridagilarni hisoblashda oxorlash jarayonidagi tanda uzayishi V% hisobiga
olinadi, V % ni miqdori turli iplari uchun quyidagicha:

Eshilmagan (bittali) paxta tolalari uchun – 0.7 % (1 %)

Eshilgan (ikkilangan) paxta tolalari uchun- 0,4 %

Shtapel viskoza tolalari uchun – 1,5 %

Sun'iy va sintetik tolalar uchun – 5,5 %

V) Agar tanda oxorlansa, u xolda qoldik oxor miqdorini hisobga olib tanda og'irligi hisoblanadi.

Qoldik oxor miqdori

P_x – Xaqiqiy oxor miqdori % da

$$\Pi_x \frac{2}{3} \cdot \Pi_x = \frac{2}{3} \cdot 3 = 2[\%]$$

$$M_T = (M_{or} + M_{qir}) \cdot (1 + 0.01 \cdot \Pi_{qol}) = (20 + 17,7) \cdot (1 + 0.01 \cdot 2) = 38,5[kg]$$

g) 100 metr xom to'qima uchun sarflanadigan arqoq ipi og'irligi, kg

$$M_{arq} = \frac{P_{arq} \cdot 10 \cdot T_{arq} \cdot L_{arq}}{10^6} \cdot 100 = \frac{171 \cdot 10 \cdot 42 \cdot 2,4653}{10^6} \cdot 100 = 17,7[kg]$$

L_{arq} – arqoqni xomuzadagi uzunligi, m da,

$$L_{arq} = B_{t,b} + B_q = 2,4453 + 3 = 2,4753[m]$$

1.1 metr xom to'qima og'irligi, kg

$$M_M \frac{M_T + M_{arq}}{100} = \frac{20,887 + 17,7}{100} = 0,385[kg]$$

1.2 metr kvadrat xom to'qima og'irligi, kg

$$M_m \frac{M_T + M_{arq}}{Bx \cdot 100} = \frac{20,887 + 17,7}{232,06 \cdot 100} = 0,166[kg/m^2]$$

1.3 To'qimani tola materiallar bilan qoplanishi, % da.

A) Tanda bo'yicha

$$E_T = P_T \cdot d_T \cdot 100 = 27,8 \cdot 0,21 \cdot 100 = 56,7[\%]$$

B) Arqoq bo'yicha

$$E_{arq} = P_{arq} \cdot d_{arq} \cdot 100 = 171 \cdot 0,26 \cdot 100 = 4446[\%]$$

V) To'qimani tashqi qoplanishi

$$E_{tuk} = E_T + E_{arq} - \frac{E_T \cdot E_{arq}}{100} = 567 + 4446 - \frac{567 \cdot 4446}{100} = 49,88 \approx 50(\%)$$

To`qimani taxtlash hisobini jamlash jadvali.

2-Jadval

№	Ko`rsatkichlar nomi	SHartli belgi	O`lchov birligi	Art
1	To`qimani bog`lanish koeffitsenti	S	-	8,15
2	To`qimani to`ldirilish koeffitsenti	K_{Tuk}	%	0,4524
3	To`qimani pardoqlash jarayonidagi qisqarishi	M_{qisq}	%	5,2
4	Xom to`qima kengligi	B_{χ}	%	232,06
5	Tanda ipini tig` bo`yicha taxtlash kengligi	$B_{tig'}$	Sm	244,53
6	To`qimani o`rtasi kengligi	$B_{o'r}$	Sm	229,06
7	Qirg`oq iplari kengligi	B_{qir}	Sm	3,0
8	Tanda iplari umumiy soni	n_t	Dona	6452
9	Qirg`oq iplari soni	$n_{qirg'}$	Dona	84
10	O`rta iplari soni	$n_{o'rt}$	Dona	6368
11	Tig` nomeri	n_b	tish/sm	88
12	Tig` tishlari soni	$n_{tig't}$	tish/sm	2143
13	O`rta iplari uchun 1 ta shodadagi gulalar soni	$G_{o'rt}$	dona	1592
14	Qirg`oq iplari uchun 1 ta shodadagi gulalar soni	$G_{qirg'}$	dona	42
15	Umumiy gulalar soni	G_{um}	Dona	6452
16	Gula zichligi	P_r	Dona	7
17	Tanda kuzatgichlar soni	n_{tk}	Dona	6452
18	Tanda kuzatgichlar zichligi	P_{tk}	tk/sm	9
19	100 metr hom to`qimadagi tanda iplar og`irligi	$M_{o'rt}$	kg	19,6
20	100 metr hom to`qimadagi arqoq iplar og`irligi	M_{arq}	kg	17,7
21	100 metr hom to`qimadagi qirg`oq iplar og`irligi	$M_{qirg'}$	kg	0,26
22	100 metr hom to`qimadagi tanda iplar og`irligini qoldiq ohor miqdorini hisobga olgan holda	M_t'	kg	20,887
23	1 metr kvadrat hom to`qima og`irligi	$M_{\frac{2}{m}}$	kg/m ²	0,166
24	To`qima yuzasini tanda iplari bilan to`ldirilish (%)	E_T	%	56,7
25	To`qima yuzasini arqoq iplari bilan to`ldirilish (%)	E_A	%	44,76
26	To`qima yuzasini tolali materiallar bilan qoplanishi	$E_{To'q}$	%	50

	(%) foizi			
27	Tanda iplari diametric	d_t	mm	0,209
28	Arqoq iplari diametric	d_a	mm	0,252

3.5 To`quv korxonasini texnologik jarayon va uskunalarni tanlash va asoslash.

Loyihalanayotgan to`quv korxonasining texnologik jarayoni yuqori tezlikda ishlaydigan, sifatli mahsulot ishlab chiqaradigan bo`lishi kerak. Mashina va dastgohlarni tanlashda asosan foydalaniladigan ipning tolaviy tarkibi, chiziqli zichligi, ishlab chiqariladigan mato turi va ishlatish maqsadi va uning xossalari asosida tanlanadi.

Tanlangan texnologik jarayon quyidagi texnologik shartlarni bajarishi kerak:

- Tanlangan jihozlar zamonaviy talablarga to`liq javob berishi;
- Yuqori sifatli to`qima ishlab chiqarish;
